

KIBERJINOYATLARNING KELIB CHIQISH VA RIVOJLANISH TARIXI

Ergasheva Gulhayo O'tkir qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu maqolada kiberjinoyat tushunchasi, uning kelib chiqish va rivojlanish tarixi, rivojlanishi uchun sharoit yaratgan vaziyatlar, xususan, respublikamizda kiberjinoylarning turlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, kiberjinoylarning butun insoniyatga solayotgan xavfi qisman olib beriladi.

Kalit so'zlar: kiberjinoyat, axborot, kibermakon, kompyuter jinoyati, internet, kiberxavfsizlik, kiberjinoatchilikka qarshi kurashish, axborot texnologiyalar, elektron jinoyat, firibgarlik, kibertovlamachilik.

THE HISTORY OF THE ORIGIN AND DEVELOPMENT OF CYBERCRIMES

Abstract: The article will be paid attention below talks about the concept of cybercrime, the history of its origin and development and the way it revolutionised, in particular the types cybercrime in our country. Also, the threat posed by cybercrimes to the entire humanity is partially revealed.

Key words: cybercrime, information, cyberspace, computercrime, internet, cybersecurity, fight against cybercrime, information technologies, electronic crime, fraud, cyber extortion.

Zamonaviy dunyoda axborot jamiyat taraqqiyotining eng muhim tarkibiy qismiga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Jamiyatning axborot jamiyatiga aylanishi shuni anglatadiki, har qanday shaxsiy ma'lumot ahamiyatli bo'lib bormoqda. Axborot chegara tanlamaydigan, virtual to'siqlarni tan olmaydiagn shunday bir davrda kiberjinoatchilik global tusdagi, chegara bilmas muammoga aylanib ulgurdi.

Kiber jinoyatchilikka nisbatan yangi tushuncha bo‘lsa-da allaqachon ko‘plab davlatlar iqtisodiyotiga kirib bordi. Kiberjinoyat bu – kompyuter va tarmoqning birgalikdagi aloqasi ostida sodir etiluvchi jinoyat turidir. Kiberjinoyatga kompyuter tizimi yoki tarmog‘ida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilishi mumkin bo‘lgan har qanday jinoyat kiradi.¹

Kibermakonda sodir etilgan ushbu jinoyatlar kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari kompyuter dasturlari faoliyatiga qonunga zid ravishda aralashish, kompyuter ma’lumotlariga ruxsatsiz kirish, ko‘chirish shuningdek, axborot texnologiyalari, kompyuter tarmoqlari yordamida yoki ular orqali sodir etilgan boshqa noqonuniy ijtimoiy xavfli xarakatlardir. Kiberjinoyatlarda kompyuter texnologiyalari subyekt, axborot xavfsizligi obyekt hisoblanadi. Kiberjinoyatlar axborot texnologiyalari sohasidagi jamoatchilik munosabatlariga jiddiy tahdid soladi va shuning uchun zamonaviy sharoitda ularga qarshi kurashish davlat va fuqarolar uchun jiddiy muammoga aylandi.

Bugungi kunda kiber jinoyatlar katta muammo bo‘lib, zararli dasturlar noqonuniy ravishda pul olish uchun yozilgan. Internetning rivojlanishi ushbu o‘zgarishlarning asosiy omillaridan biri bo‘ldi. Kompaniyalar va individual foydalanuvchilar endi o‘z hayotlarini atarsiz tasavvur qila olmaydilar va ko‘proq moliyaviy operatsiyalar Internet orqali amalga oshiriladi. Kiberjinoyatchilar so‘nggi paytlarda zararli kodlar yordamida pul "ishlab olish" uchun katta imkoniyatlar mavjudligini va bugungi kunda ko‘plab zararli dasturlar buyurtma asosida yoki boshqa jinoyatchilarga sotish niyatida yozilganligini tushunishdi.

Kiberjinoyat bu kompyuter va tarmoqning birgalikdagi aloqasi ostida sodir etiluvchi jinoyat turidir. Kompyuter jinoyat paytida maqsadli yo‘naltirilgan qurol vazifasini bajarib beradi. Kiberjinoyat kimningdir xavfsizligi va moliyaviy saviyasiga zarar yetkazishi maqsadida sodir etiladi. Ana shunday kiberjinoyatlardan biri 1971-

1. <https://www.amerikaovozi.com/a/a-36-2010-03-26-voa1-93371769/807021.html>.

2. ilmiytadqiqot.uz.M.S.Berdimurodova:,, Globallashuv jarayonida internet xavfsizligi va kiber jinoyatla”’.1-sod.1-tom.2022.iyul

yilda sodir etilgan birinchi "elektron jinoyat" edi. Shu yili AQSHning „Nyu-York Penni Sentral Reylroud" temiryo'1 kompaniyasi qimmatbaho yuk ortilgan 200 ta vagonni yo'qolganini payqab qoldi. Bu ishni tekshirish jarayonida bir qancha boshqa firmalarning ham vagonlari yo'qolgani aniqlandi. Sinchkovlik bilan olib borilgan tekshirish natijasida, vagonlar yo'qolishining sababi kompyuterga atayin noto'g'ri manzil kiritilganida ekanini ko'rsatdi. Bu rasmiy qayd etilgan birinchi "elektron jinoyat" edi. Bu kabi kiberjinoyatlarning guvohi bo'lgan Amerikaning sobiq Prezidenti Baraka Obama: "Kiber-xavfsizlik XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biri. Yadro va ommaviy qirg'in qurollaridan qolishmaydi", -degan edi. Hozirgi kunga kelib, kompyuterlar ham, aloqa tizimlari ham beqiyos darajada rivojlanib ketdi. Bu "elektron jinoyatchilar "ga ham yangi imkoniyatlar yaratib berdi.²

Kiberjinoyat tarixi barchamizni tashvishga solayotgan eng so'nggi tarixlardan biridir. Hozirgi vaqtida kiberjinoyatchilik muammosi jahon hamjamiyati miqyosigacha o'sib bormoqda. Kiberjinoyatlarning paydo bo'lishini kompyuter davri deb ataladigan kompyuter paydo bo'lishidan boshlab hisoblash mumkin.

Kiberjinoyatlar tarixini ikki davrga bo'lish maqsadga muvofiq:

- Birinchisi kompyuter yaratilgan paytdan boshlab 1990-yilgacha;
- Ikkinchisi 1990-yildan hozirgi kungacha;

Nega aynan 1990-yil? Gap shundaki 1990-yildan boshlab internet butun dunyo bo'yab katta tezlikda tarqala boshladi. Kompyuterdan jinoyat sodir etish maqsadida foydalanish haqida birinchi eslatma 1960-yillarda ommaga e'lon qilingan. 1960-1970-yillardagi kompyuter jinoyati bugungi kiberjinoyatdan farq qiladi. Birinchidan o'sha paytda internet hali paydo bo'limgan edi. Ikkinchidan kompyuterlar hali tarmoqqa ulanmagandi.

Kompyuterlardan cheklangan holda foydalanish va boshqa kompyuterlar bilan aloqaning yo'qligi kompyuter jinoyatlari ehtimolini keskin kamaytirgan. Ayrim

3. Николаева. А.Б, Турбинская.М.В „ Киберпреступность: история развития, проблемы практики расследования" 13.10.2014г.

hollarda esa kompyuterga xizmat ko‘rsatadigan odamlar tomonidan sodir etilishi mumkin edi.

Kompyuter jinoyatlari rivojlanishining ikkinchi bosqichi o‘tgan asrning 90-yillari o‘rtalarida internet tez sur’atlar bilan tarqalgan davrda boshlandi. Bu shaxsiy kompyuterlar va internetdan umumiyl foydalanish uchun qulay vaqt edi. 1995-yil dekabr oyi ma’lumotlariga ko‘ra dunyo bo‘ylab 16 million internet foydalanuvchisi ro‘yxatdan o‘tgan va 2002-yil may oyiga kelib bu ko‘rsatkich 580 millionga yetdi va dunyo aholisining 10% i ni tashkil etdi. Shuni ta’kidlash kerakki, internetning butun dunyo bo‘ylan tarqalishi notejis edi, masalan internetga ulanishlar umumiyl sonining 95 foizdan ortig‘i AQSH, Kanada va Yevropada joylashgan. Kiberjinoyatlar rivojlanish davrida „Hacking“ atamasi tez-tez ishlatib borildi va keyinchalik xakerlik kiberjinoyat tushunchasiga kiritilga jinoyat sifatida talqin etildi.³

Bu yo‘nalishda hozirgi kunga qadar mamlakatimizda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan 600 dan ortiq jinoyatlarni aniqlashga erishildi. So‘nggi 3 yilda kiberjinoyatlar soni bir necha baravarga oshib ketgani, jumladan, kiberjinoyatchilikning bir qator turlari sodir bolayotgani ayttilmoqda:

- Firibgarlar plastik karta foydalanuvchilariga kelgan SMS-xabarnomadagi kodlarni tolovni amalga oshirish, yutuqni berish kabi bahonalar orqali egallab, undagi mablaglarni ozlashtirish;

- shaxsiy malumotlarni egallah va ularni oshkor qilish bilan qo‘rqitib tovlamachilik qilish;(kibertovlamachilik)

- ijtimoiy tarmoqda zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish, haqorat qilish va boshqalar;⁴

Shunday rivojlangan davrda yashayapmizki, insoniyat hayotini axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va internetsiz tasavvur qilish imkonsiz. Ushbu sharoitda esa kiberjinoyatlar o‘sishi barcha davlatlar xavfsizligiga tahdid solmoqda, insonlarning davlat hokimiyyati organlariga ishonchini pasaytirmoqda. Bugungi kunda aloqa markazlarining tashkil etilishi, kiberjinoyatlarni qonun hujjatlarida belgilanishi , aybdorlarni ekstraditsiya qilish, vakolatli davlat organlarining xalqaro hamkorligi, o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish va ma’lumotlar almashinuvi dunyo hamjamiyatida

kibermakonda sodir etilgan xalqaro jinoyatlarga qarshi kurashish va ularga qarshi kurashishning samarali usullarini hayotga tadbiq etishga xizmat qilib kelmoqda.

Kiberjinoyatlar, kiberhujumlar va boshqa kompyuter jinoyatlari chegara bilmas, hudud tanlamas jinoyatlardir. Yer yuzining istalgan nuqtasida , istalgan odam kiberjinoyat qurboni bo‘lib,kiberhujumga uchrar ekan bu sarhadsiz jinoyatga qarshi kurashish butun insoniyatning burchi va vazifasi desam adashmagan bo‘laman.

Zamon taraqqiyoti va voqelikni hisobga olgan holda „kiberjinoyat”ning kompleks tushunchasini belgilash uchun kompyuter jinoyatlarining asosiy elementlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va ushbu ijtimoiy xavfli qilmishlarni tergov qilishni rivojlangan metodlarini ishlab chiqish zarur. Mamlakatimiz Jinoyat kodeksi va boshqa qonun hujjalari aloqa tarmoqlari, shu jumladan Internet bilan bog‘liq jinoyatlarni tartibga solish bo‘yicha axborot tizimi va ma’lumotlarga ruxsatsiz kirish, plastik va kredit kartalari orqali pul mablag‘larini yechib olish bilan bog‘liq ma’lumotlarni qo‘shib, o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta’kidlash joizki, jamiyatning har qanday pog‘onasidagi yoshlarni kiberhujumlar, firibgarlik, aldov va yolg‘on ma’lumotlar qurboniga aylanib qolmasliklari uchun o‘z bilim va salohiyatiga sobit ruhda tarbiyalash, ularning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaktirishga doir choratadbirlarni amalga oshirish zarur. Zero, barchamizning xavfsziligidiz o‘z qo‘limizdadir.

4.Anorboyev.A.U „Kiberjinoyatchilik unga qarshi kurashish muammolari va kiberxavfsizlikni ta’minlash istiqbollari”. Monografiya.T:Milliy Gvardiya Instituti.2020

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.amerikaovozi.com/a/a-36-2010-03-26-voa1-93371769/807021.html>.
2. ilmiytadqiqot.uz. M.S.Berdimuradova;,,Globallashuv jarayonida internet xavfsizligi va kiber jinoyatlar''. 1-tom.1-son.2022.iyul
3. Николаева. А.Б, Турбинская.М.В „ Киберпреступность: история развития, проблемы практики расследования” 13.10.2014г.
4. A.UAnorboyev Kiberjinoyatchilik, unga qarshi kurashish muammolari va kiberxavfsizlikni ta'minlash istiqbollari. Monografiya. T. :Milliy gvardiya instituti.2020